

BOTANIKA DARSLARIDA TALABA MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

*Yusupova Zoxidaxon Abdumalikovna
Farg'ona davlat universiteti dotsenti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida botanika fanini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish jarayonlarini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari, talaba mustaqil ishini tashkil etish uslubiyoti va bu jarayonda interfaol usullardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Kredit-modul tizimi, tayanch mustaqil ta'lim, mustaqil ta'lim topshiriqlari, mustaqil ishning noan'anaviy metodlari.

Mustaqil ta'lim o'quv jarayonining muhim ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u talabalarda mustaqil bilim olish, mavzuni erkin tahlil qilish, tegishli masala bo'yicha o'z fikriga ega bo'lish, ilmiy tadqiq etish, erkin fikrlash, muammoli masalalar yuzasida xulosa va takliflar ishlab chiqarish hamda ularni amaliyotga tatbiq etishga oid zarur bilim va ko'nikmalar shakllanishida katta ahamiyatga ega. Talabanning mustaqil ishi o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Talabanning mustaqil ishi aniq bir fandan o'quv rejasida va fan dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Demak, *mustaqil ta'lim* – talabanning tegishli fan yuzasidan o'qituvchining topshirig'i va uslubiy rahbarligi asosida, ammo uning bevosita ko'magisiz bajaradigan o'quv, o'quv-tadqiqot, ilmiy tadqiqot ishlari hisoblanadi.

Talabalarning mustaqil ta'limi – talabanning o'quv predmetiga aylantiradigan bilish faoliyati, kasbiy rivojlanishda o'z-o'zini boshqarish mexanizmi shakllanadi, o'qituvchi tomonidan bilvosita nazorat qilinib, kasbiy bilim va ko'nikmalarni takomillashtirishga hamda bo'lajak mutaxassisning kasbiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Talabalar mustaqil ta'limining asosiy vazifasi mustaqil ravishda ma'lumotlar topish usuli bilan bilim olishni rivojlantirish, o'quv jarayoniga ijodiy yondashishga faol qiziqishni shakllantirishdan iborat. Talabalarning kurs ishlari, kurs loyihasi, bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashlari ham mustaqil ish hisoblanadi va talabalar bu ishlarni tayyorlayotganlarida qo'yilgan muammolarni chuqur tahlil qilib, o'zlarining mustaqil asoslangan fikr va xulosalarini chiqarishlari kerak. Zamonaviy ta'lim jarayoniga ko'ra, ta'lim oluvchilar o'qish jarayonida iloji boricha mustaqil o'rganishlari kerak, pedagog esa bu mustaqil mehnatni boshqarish, talabalarga kerakli materiallarni berib borishi lozim.

Shu paytgacha biz asosan "talabani qanday o'qitishimiz kerak?", degan muammo ustida bosh qotirdik. Kredit-modul tizimida esa "talaba qanday o'qishi kerak?" degan muammo ko'ndalang qo'yiladi. Asosan auditoriyadagi darslarga

ko‘proq e‘tibor berilardi, talabanning mustaqil ishiga esa jiddiy e‘tibor qaratilmasdi, chunki bu faoliyat turi chuqur o‘rganilmagan edi.

Endi fan moduli tarkibidagi “O‘qituvchi rahbarligidagi talabanning mustaqil ishi” (O‘RTMI) va o‘qituvchiga bog‘liq bo‘lmagan “Mustaqil ta‘lim” (MT) muhim ahamiyat kasb etadi. O‘RTMI ga keyslar, topshiriqlar, intervyu, krossvord, viktorina, esse, dayjest, taqdimot, hisob ishi, hisob-chizma ishi, kurs loyihasi, kurs ishi, ilmiy izlanishlar, fan to‘garaklarida qatnashish va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Bunday faoliyat turlariga rahbarlik qilish uchun alohida o‘quv yuklamalari joriy etilishi maqsadga muvofiq. MT ga esa vodkastlar, o‘rgatuvchi testlar, virtual trenajyorlar, FAQ, forumlarni misol qilib keltirish mumkin. O‘RTMI va MT turlari ro‘yxatini, glossariylarni, ularni qo‘llash bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalarni zarur darajada shakllantirishimiz mumkin, lekin eng asosiy masala – har bir fan bo‘yicha o‘ziga xos O‘RTMI va MT turlarini ishlab chiqishdir. Ayniqsa, ushbu mustaqil ish turlarini masofaviy ta‘lim platformalarida shakllantirish shu kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Bu jarayonlarni ilg‘or pedagoglarning tajribalarini ommalashtirish orqali jadallashtirish mumkin.

Botanika fanining xususiyatlaridan kelib chiqib talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda Modul dasturi, Keys texnologiyasi va Grafik organayzerlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Mavzu. Lizosomalar. Peroxisoma, sferosoma va o‘simlik hujayrasi vakuolasi

Ishning maqsadi: Olingan bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish, vakuola turlarini hujayra hayotidagi o‘rniga ko‘ra bir-biridan farqlash

Xisobot shakli: Rasmni izohlash va tahliliy jadval.

Bajarish uchun sarflanadigan vaqt: 4 soat


6-mustaqil ish topshirig‘i: Vakuolalarning turlarini rasmda belgilash, ularni o‘lchami, vazifalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar asosida tahliliy jadval tayyorlash

Topshiriqni bajarish uchun metodik ko‘rsatmalar:

1. Badalxo‘jayev va T.Madumarovlar muallifligidagi Sitologiya darsligi (101-110 betlar) va I.A. Abdulov, X. Xalbekovalar muallifligidagi Hujayra biologiyasi nomli uslubiy qo‘llanma (50-58 betlar)dan mavzuga oid ma‘lumotlarni sinchiklab o‘qing;
2. <https://youtu.be/H5ztHZVZvxl> URL manzildagi videorolikni tomosha qiling;
3. Quyidagi jadvalni to‘ldiring:

Vakuola turlari	O‘lchami	Vazifasi	Joylashgan o‘rni	Saqlagan moddasi
Birlamchi				
Ikkilamchi				
Avtolizoma				
Telolizosoma				


4. Rasmdagi gul diagrammasini tuzish: 1-2-gulning ko'ndalang kesmasi va diagrammasini tuzib chiqish; 3-no'xat guli; 4-uning toj barglarini tahlil qilish; 5-uning diagrammasi; 6-jag-jag` guli; 7-uning diagrammasi.



Baholash mezonlari:

- Ikkala topshiriqdagi 8 ta holat bo'yicha to'g'ri javob bo'lsa «5»;
- Ikkala topshiriqdagi 6 ta holat bo'yicha to'g'ri javob bo'lsa «4»;
- Ikkala topshiriqdagi 4 ta holat bo'yicha to'g'ri javob bo'lsa «3»;
- Ikkala topshiriqdagi 4 tadan ortiq noto'g'ri javob bo'lsa «2».

Mustaqil ta'lim topshiriqlari orasida ma'lumotlarni tahlil va sintez qilishga, o'rganganlari asosida xulosalar chiqarishga yo'naltiradigan vazifalarning bo'lishi maqsadga muvofiq. Misol tariqasida "Mikrosporogenez" mavzusi yuzasidan beriladigan mustaqil ish topshirig'ini keltiramiz:



Chang donasining shakllanish bosqichlari. Mikrosporogenez:
 1 – changdonni ko'ndalang kesmasi; 2-5 – chang kamerasining shakllanishi;

6-12 – turli chang donalari; 13- changning arxesporial hujayrasi; 14 – 15- meyoz bosqichlari; 16 - mikrosporalar tetradasi; 18-22 – chang donasining hosil bo‘lishi; 18 - mikrospora; 19– 20 – vegetativ va generativ hujayraning shakllanishi; 21–generativ hujayraning bo‘linishga tayyorlanishi; 22–yetilgan chang.

Quyidagi mini keyslarni javobini toping:

Mini keys №1
Tadqiqot metodiga ko‘ra ultrabinafsha nur ta’sir qilish yo‘li bilan o‘rganilayotgan hujayra reproduksiyasini to‘xtatish belgilangan. Tadqiqotchi tadqiqot uchun optimal bo‘lgan sharoitda hujayralarga ultrabinafsha nurini ta’sir ettirishiga qaramay ayrim hujayra reproduksiyasi ro‘y berdi.
Savol: Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz? Tadqiqotchining xatosimikan?
Mini keys №2
Ma’lumki eukariot organizmlar zigotadan, zigota esa erkak va urg‘ochi hujayralarning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Odatda ikkita hujayra yadrosi qo‘shilsha xromosomalar soni ikki barobarga ortadi, natijada paydo bo‘lgan organizm tetraploid bo‘lib qolishi kerak. Ammo yuqoridagi holatda rivojlanayotgan organizm hujayralari diploidligicha qoladi.
Savol: Qanday qilib rivojlanayotgan organizm diploidligicha qoladi?
Mini keys №3
Suvda yashaydigan bir hujayrali organizm meyoz usulida bo‘linmagan holatda ikkinchi huddi shunday hujayra bilan qo‘shilib zigotani hosil qildi. Bu zigota boshqa ko‘pchilik organizmlar singari diploid to‘plamli xromosomalarga ega.
Savol: Bu qanday organizm? Meyoz usulida bo‘linmagan hujayralar qanday qilib diploid to‘plamli xromosomaga ega bo‘lgan zigotani hosil qiladi?
Mini keys №4
Ma’lumki, turlicha genotipli ikkita gametaning qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan zigotaning genotipi boyiydi. Spirogira o‘simligida esa bunday jarayon natijasida genotipning boyishi kuzatilmaydi.
Savol: Haqiqatdan ham shundaymi? Tushuntirib bering.

Botanika fanidan mustaqil ish sifatida talabalarga muayyan mavzu bo‘yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo‘lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo‘ladigan savollar tuzishni topshirish mumkin. Bunda professor-o‘qituvchilar tomonidan talabalarga testga quyiladigan talablar, uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko‘zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo‘yicha yo‘l-yo‘riq beriladi. Konsultatsiya vaqtida talabalar tomonidan bajarilgan ishlarning qo‘yilgan maqsad va vazifalarining talablarga

javob berish darajasi nazorat qilinadi, qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to'ldirish taklif etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

8. Karimova. D.R. Kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim [Matn] : uslubiy qo'llanma / - Toshkent: OOO "Complex Print",2021.-126 b.
9. O'rinov V., Sultonov M., Umarov A. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tashkilotlarida ECTS kreditmodul tizimi: asosiy tushuncha va qoidalar. – T.: «Ma'naiyat», 2020. – 95 b.
10. O'zbekiston respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda 824-son qaroriga asosan qabul qilingan “Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom”. Toshkent, 2020 yil.
12. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. – Toshkent, TKTI, 2020. - 120 bet.
13. Xayitova Sh.D., Allazov I.S. Talabalar mustaqil ta'lim olishini faollashtirish bugungi davr talabi. Analytical journal of education and development. Vol. 01 Issue. 05.2021. ISSN: 2181-2624. P. 153-158.
14. Matkarimova A.A. Botanika (Yuksak o'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar) Toshkent, 2019. – 111 b.